



RETSEPTURADA ERITMALARNING QO'LLANILISHI YUZASIDAN AYRIM MULOHAZALAR

Maxmudov Zafar Mardanovich

Samarqand davlat tibbiyot instituti Tillar kafedrası

Lotin tili va tibbiy terminologiya fani assistenti

(94)4774510, e-mail: maxmudovzafar4510@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6651729>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

dori shakli, eritma, suvli
eritmalar, moyli
eritmalar, spirtli
eritmalar, inyeksiya
uchun, tashqariga qo'llash
uchun, ichkariga qo'llash
uchun, retsept, anesteziya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada tibbiy amaliyotda eng ko'p qo'llaniluvchi dori shakllaridan biri -eritmalarining retseptlarda berilishi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi. Eritmalarining erituvchilarga ko'ra, qo'llanishiga ko'ra turlari retseptlarda ko'rsatib o'tildi. Eritmalarining retseptlarda to'g'ri yozilishi, eritmalarini dori nomlari bilan yozishda duch kelinadigan grammatik va leksik muammolarga yechim topish yuzasidan mulohazalar bilan o'rtoqlashildi.

Talabalar bilan lotin tili va tibbiy terminologiya fanidan dars o'tish jarayonida dori shakllari mavzusini yetarlicha yoritib berish uchun ma'lumotlar kundan-kunga kamlik qilib qolmoqda. Bunga sabablar, o'zbek tilidagi ma'lumotlarning kamligi, dori shakllaridagi zamonaviy o'zgarishlar, talabalarining rus tilini yetarli darajada bilmasligi va hokozolar. Shuning uchun ham, lotin tili darslarida rus tili va boshqa xorijiy tillardan tarjima qilish, zamonaviy va yangi ma'lumotlarni talabalar bilan bo'lishish zarurati paydo bo'ladi. Bunday zaruratlarini bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan xulosalar kerak bo'ladi. Ilmiy xulosalar esa, albatta, bahs va munozaralar natijasida vujudga keladi.

Maqsad: Dori shakllarining retseptlarda to'g'ri yozilishi, eritmalarini dori nomlari bilan yozishda duch kelinadigan grammatik

va leksik muammolarga yechim topish yuzasidan mulohazalar bilan o'rtoqlashish. Eritma (solutiō, onis, f) –bu (qattiq, suyuq yoki gazsimon) dori moddalarini erituvchilarda to'liq eritish yo'li bilan tayyorlangan, bir jinsli shaffof suyuqlikdir. Erituvchilar destirlangan suv (aqua destillāta), etil spirti (spirītus aethylīcus 95%, 90%, 70%), glitserin (Glycerinum, i, n), vazelin (Vaselinum, i, n), zaytun moyi (oleum Olivarum), shaftoli moyi (oleum Persicorum), bodom moyi (oleum Amygdalārum), kungaboqar moyi (oleum Helianthi) bo'lishi mumkin.

Erituvchilarning turiga qarab eritmalar quyidagilarga bo'linadi:

☐ –suvli eritmalar (solutiōnes aquōsae);

☐ –spirtli eritmalar (solutiōnes spirituōsae);



⑦ –moyli eritmalar (solutiōnes oleōsae seu olea medicāta);

⑦ –efirli eritmalar (solutiones aetherosae);

⑦ –glitserunli eritmalar (solutiōnes glycerinātae).

Qabul qulinishiga ko'ra eritmalar quyidagilarga bo'linadi:

1. Inyeksiya uchun eritmalar (Solutiōnes pro injectionibus);

2. Tashqariga qo'llash uchun eritmalar (Solutiōnes ad usum externum). Ular tomoqni chayqash (g'arg'ara qilish) uchun (gargarismāta), losiyonlar (lotiōnes), og'iz bo'shlig'ini chayqash uchun (collutōria), huqna, klizma uchun (cnemāta seu clysmāta), moylash uchun (litūrae), sepish, purkash uchun (perlotiōnes), surtish uchun (frictiōnes) va boshqalarga bo'linishi mumkin.

3. Ichga qo'llash uchun eritmalar (Solutiōnes ad usum internum seu solutiōnes pro anaesthesiā).

Eritmalar ampulalarda (in ampullis), shprits-tubalarda (in spritz-tubūlis), to'g'ri ichak pipetkalarida (pipetta per rectum), 3-5 ml.dan mikrolizm uchun (inrectiolis) eritmalar skaklida ishlab chiqariladi.

Eritmalar retseptlarda qisqartilgan va kengaytilgan usullarda yoziladi.

Eritmalarni qisqartirilgan usulda retseptlarda yozishda Recīpe (Rp.:) so'zidan so'ng dori shakli –Solutionis Genetivus Singularis.da yoziladi hamda dori moddasining nomi, foizlarda eritmaning darajasi va dorining miqdori yoziladi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Menthōli oleōsae 1 % - 10 ml

Da. Signa: 2 – 3 tomchidan kuniga 3 marta.

Kengaytirilgan usulda yozilgan retseptlarda eritmalar Recīpe (Rp.:) so'zidan so'ng dori moddasining nomi,

uning miqdori va erituvchisi yoziladi.

Masalan:

Rp.: Menthōli 0,1

Phenylī salicylātis 0,3

Olei Vaselīni 9,6 ml

Misce. Da.

Signa: Burunga 2-3 tomchidan kuniga 2 mahal.

Inyeksiya uchun eritmalar (Solutiōnes pro injectionibus)

Inyeksiya uchun eritmalar (Solutiōnes pro injectionibus) teri ostiga quyish uchun, mushaklar orasiga quyish uchun, vena ichiga quyish uchun va boshqa eritmalar maqsadida ampulalarda ishlab chiqariladi.

Inyeksiyaning sterillanishi to'g'risida retseptning Subscriptio qismida yoziladi. U yerda in ampullis (ampulalarda), pro injectionibus (inyeksiya uchun) so'zlari yoziladi. Ampulada bo'lmagan eritmalar retseptlarda yozilganda Sterilīsa! (Qaynatib tozala!), Sterilisētur (Qaynatib tozalansin!) so'zi yozilishi mumkin bo'ladi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Magnesii sulfātis 25 % - 10 ml

Da tales doses numēro 5 in ampullis

Signa: 10 ml.dan har kuni mushak orasiga yuborilsin.

Rp.: Solutiōnis Acetylcysteīni 10 % pro injectionibus 2 ml numēro 10 in ampullis.

Da. Signa: 2 ml.dan kuniga 3 mahal mushak orasiga yuborish uchun.

Dorixonada tayyorlanadigan inyeksiya uchun eritmalar retseptlarda yozilishida retseptning Subscriptio qismida "Sterilisētur!" (Qaynatib tozalansin!) yoki "Sterilīsa!" (Qaynatib tozala!) deb yoziladi. Bunday hollarda dori moddasining nomi va miqdori hamda erituvchilari yozilgan bo'ladi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Natrii iodīdi 10 % - 200 ml Sterilisētur!

Da in vitro nigro.



Signa: 10 ml.dan mushak orasiga yuborilsin.

Ampulardagi inyeksiya uchun eritmalar doza miqdori ko'rsatib yoziladi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Morphīni 1 % 1 ml

Dentur tales doses numēro 6 in ampullis

Signētur: 1 ml.dan teri ostiga.

Retseptlarda spirtli yoki moyli eritmalar yozilganda albatta erituvchisining turi ko'rsatiladi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Camphōrae oleōsae 20 % - 2 ml

Da tales doses numēro 6 in ampullis

Signa: 2 ml.dan mushak orasiga yuborilsin.

Tashqariga qo'llash uchun eritmalar (Solutiōnes ad usum externum)

Tashqariga qo'llash uchun eritmalar (Solutiōnes ad usum externum)

retseptlarda qisqartirilgan va kengaytirilgan usulda yoziladi.

Retseptlarda qisqartirilgan usulda yozilganda dori shakli, dori moddasining nomi, eritma turi (spirtli yoki moyli), foizlardagi darajasi va umumiy miqdori ko'rsatiladi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Acīdi salicylīci spirituōsae 1 % 10 ml

Da.

Signa: Teriga surtish uchun.

Suvli eritmalarini retseptlarda qisqartirilgan usulda yozilganda erituvchi ko'rsatilmaydi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Kalii permanganātis 0,1 % 500 ml

Da.

Signa: jarohatlarni yuvish uchun.

Tashqariga qo'llash uchun eritmalar retseptlarda kengaytirilgan usulda yozilganda dorining barcha tarkibiy qismlari, shuningdek, erituvchilari ham to'liq ko'rsatiladi. Masalan:

Rp.: Alumīnis 4,0

Acīdi borīci 6,0

Aquae destillātae 200 ml

Misce. Da.

Signa: Surtish uchun.

Rp.: Natrii tetraborātis 2,5

Glycerīni 50 ml

Spirītus aethylici 0,5 % ad 10 ml

Misce. Da.

Signa: teriga surtish uchun.

Tashqariga qo'llash uchun eritmalar tayyorlash uchun tabletkalar ham ishlatilishi mumkin. Masalan:

Rp.: Furacillīni 0,02 ad usum externum numēro 10

Da.

Signa: 1 tabletkani 100 ml.suvda eritilsin. Chayqash uchun.

Ichga qo'llash uchun eritmalar (Solutiōnes ad usum internum)

Ichga qo'llash uchun eritmalar (Solutiōnes ad usum internum) retseptlarda qisqartirilgan usulda yozilganda erituvchi - desterlangan suv (aqua destillāta), tozalangan suv (aqua purificāta) ko'rsatilmaydi.

Rp.: Solutiōnis Calcii chlorīdi 5 % 200 ml

Da.

Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3-4 mahal ovqatdan keyin.

Ichga qo'llash uchun eritmalar retseptlarda kengaytirilgan usulda yozilganda dorining barcha tarkibiy qismlari, shuningdek, erituvchilari ham to'liq ko'rsatiladi.

Masalan:

Rp.: Cupri sulfātis 0,5

Aquae destillātae 50 ml

Misce. Da.

Signa: 1 osh qoshiqdan chanqagan paytda.

Shuningdek, eritmalar anesteziya (sezishni yo'qotish) uchun tayyorlanadi. Anesteziya uchun eritmalar -Solutiōnes ad anaesthesiam deb ataladi. Masalan:

Rp.: Solutiōnis Novocaīni 0,25 - 200 ml

Da. Signa. Anesteziya uchun.



Rp.: Novocaīni 1,25
Natrii chlorīdi 3,0
Kalii chlorīdi 0,038
Calcii chlorīdi 0,062
Aquae pro injectionibus 500 ml
Misceatur. Sterilisetur!
Detur. Signetur: Anesteziya uchun.
Xulosa:

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'rganish jarayonida dori shakllari bilan ko'p duch keldik, lekin, o'zbek tilida ma'lumotlarning kamligi, 1-kurs talabalarida farmakologiya haqida tasavvurning yo'qligi, amaliyotda retseptlarning lotin tilida yozilish holatlari kamayib borayotganligi tufayli talabalar tushinishida muammolar yuzaga

kelmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun o'zbek tilida ma'lumotlar bazasini yaratish, borlarini yangilash zarurati paydo bo'ldi. Biz bu zaruratdan kelib chiqqan holda ko'p ma'lumotlarni yangiladik. Yangilash jarayonidagi qiziqarli va foydali ma'lumotlarni Sizga ham ulashdik. Shu narsani xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bugungi kun talabalari juda ham ilimga, o'rganishga chanqoq yoshlardir. Bunday yoshlarga faqat ko'p va to'g'ri ma'lumotlarni yetkazib berishimiz, talabalarni to'g'ri yo'naltirishimiz zarur. Zero, kelajak yoshlarniki va uchinchi Renessans bunyodkorlari kuchli bilim bilan qurollanmog'i lozim.

References:

1. S.Znamenskaya, Latin and medical terminology, Stavropol, 2017
2. Ю.И.Городкова, Латинский язык, Ростов-на-Дону, Феникс, 2002
3. D.Kondratyov, Latin and fundamentals of Medical Terminology, Grodno, 2005.
4. A.Z.TSISYK, The Latin Language, Minsk, BSMU, 2010
5. M.Balme, J.Marwood, Oxford latin course, Oxford University Press, UK, 2011.
6. Н.Л.Кацман, И.Л.Ульянова, Латинский язык, Москва, "Владос" 2009.
7. Н.А.Гончарова, Латинский язык, Минск, "Экоперспектива", 1998.
8. Белский С.А., Учебник латинского языка, Гос.издат. Москва, 2010.
9. Raximov M.R., Xaydarov U.X.: Tibbiyot kollejarida o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, Metodik qo'llanma, Samarqand, "Sogdiana press" 2007 yil.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
11. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.